При проведении комплексной индивидуальной оценки физического развития студентов- первокурсников 2021 года было установлено, 66,1% из них имели средний уровень физического развития, выше среднего имели 14,1%, высокий – 3,1%: в 2011 г. такой уровень развития имели 77% юношей. Уровень физического развития ниже среднего и низкий в 2021г. отмечался у 16,7% юношей, в 2011 г. такие юноши составляли 15 %.

У 78,2 % девушек, обследованных в 2021 году, физическое развитие оценивалось как среднее, выше среднего и высокое: в 2011 г. 74% девушек относились к этим группам физического развития. Физическое развитие ниже среднего и низкое отмечено у 15,5% современных девушек и у 13% - в 2011 году.

Таким образом, анализ результатов проведённого исследования свидетельствует о стойком росте основных показателей физического развития студентов- первокурсников, поступивших в 2021 году, по сравнению с аналогичными данными студентов 2011 года. Выявленный сдвиг показателей физического развития 17 летних подростков в сторону увеличения указывает на процесс акселерации, который наблюдается повсеместно, в том числе и у жителей города Андижан.

Настоящее исследование станет основанием для проведения дальнейших динамических наблюдений за физическим развитием студентов, обучающихся в АГМИ.

Выводы.

1. Сопоставление результатов исследования показателей физического развития студентов 1-го курса АГМИ в возрасте 17 лет с данными обследования, проведённого 10 лет назад, показывает, что за этот период произошли существенные сдвиги по показателю роста как у юношей, так и у девушек. Сдвиги по показателю массы тела у юношей были незначительными, тогда как у девушек они носили отрицательный характер, что косвенно может указывать на некоторую «астенизацию» девушек в настоящее время.

2. Выявленный сдвиг по показателям длины тела и ОГК у 17 –летних подростков в сторону роста указывает на процесс акселерации, наблюдающийся повсеместно, в том числе и у жителей г.Андижан.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Анисимова Е.Н. Антропометрические характеристики и биохимические показатели крови юношей различных типов телосложения: Автореферат. дисс.. канд. мед. наук. Красноярск, 2004. 25 с.
2. Апанасенко Г.Л. Физическое развитие детей и подростков. Киев: Изд.Здоровья, 1985. 77 с.
3. Блинова Е.Г. Научные основы социально-гигиенического мониторинга условий обучения студентов в образовательных учреждениях высшего профессионального образования: Автореф. дисс.. мед. наук, Москва, 2010. 46 с.
4. Бунак В.В. Антропометрия: Практический курс.М., 1941. 368 с.

5. Галкина Т.Н. Антропометрические и соматотипологические особенности лиц юношеского возраста в Пензенском регионе: Автореф. дисс..канд. мед. Наук. волгоград, 2008. 22 с.

SECTION: PEDAGOGY

Hojiyeva Nargiza Mardonovna
Shofirkon tuman 37-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori,
Ne'matova Gulmira Sayfullayevna
Shofirkon tuman 16-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori
(Buxoro, O'zbekiston)

LOY VA PLASTILINDAN O`YINCHOQLAR YASASHNING TARBIVAVIY AHAMIYATI

***Rezyume.** Maqolada loy va plastilindan o`yinchoqlar yasashning tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** o`yinchoq, loy, plastilin, tarbiya, tasavvur, fikrlash.*

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari bolalarga o`yinchoq yasash uchun ko`pincha qoroz va qalam beradilar-u, loy va plastilinni ahyonda bir tavsiya etadilar. Ular yana shu mashg`ulotni yetarli darajada baholamaydilar, vaholanki, bolalarning loy va plastilin bilan bemalol ishlashi ularning ko`nikmalarini mustahkamlaydi. Bundan tashqari ana shu faoliyat turiga moyil bolalar o`z qiziqishlarini qondirishlari va o`z fantazyalarini ro`yobga chiqarishlari mumkin. Bu mashg`ulotlarda tarbiyachi ish jarayoniga kamroq aralashadi, bolaga mavzuni, tasvirlash texnikasini, shuningdek, ifoda vositalarini tanlashning ko`p masalalarini mustaqil hal qilish imkoni beriladi. Mustaqil faoliyat bolalarni tasvirlash usullaridan dadilroq foydalanishga o`rgatadi. Bundan tashqari, bolalar loy va plastilin o`yinchoqlar yasashda xuddi rasm chizishdagi kabi materialdan bemalol foydalanishga odatlanadilar. Bolalarga loy va plastilin o`yinchoqlar yasashni o`rta guruhda tavsiya etish ma`qul. Chunki bu guruhdagi bolalarda loy (plastilin)dan foydalanish bo`yicha elementar ko`nikmalar bo`ladi va faoliyatning bu turiga qiziqish vujudga keladi.

Bolalar bog`chasida o`yinchoq yasash uchun asosiy material loydir va bo`yash vaqtlarda ham loydan foydalanishni tavsiya etish ma`qul. Bunda eng muhimi bolalar loy bilan ishlashning oddiy qoidalariga rioya qilishi: uni stollar ustiga, polga to`kib-sochib, surtib tashlamasligidir. Katta guruhlarda har qanday materialni: loyni ham, plastilinni ham berish mumkin. Bu esa material tanlashda mustaqillikni vujudga keltiradi (kattaroq predmetlarni loydan, kichikroq predmetlarni plastilindan yasash ma`qul).

Plastilin bilan ishlayotgan paytda bolalar hajmni yaratish vazifasinigina emas, balki o`yinchoqqa rang tanlash bilan bogliq masalalarni ham mustaqil holda hal qiladilar. Ijodiy tarzda o`yinchoq yasash turlicha xarakter kasb etadi. U bitta predmetning, haykallar guruhining, idishlarning, dekorativ plastinkalar yoki marjonlarning tasviri bo`lishi mumkin. Bolalar o`yinchoqni individual tarzda va guruhlarga birlashib yasashlari mumkin, bunda gap bolalarning xohishida va tarbiyachining umumiy rahbarligidadir. O`yinchoq yasash taklifi boladan yoki tarbiyachidan chiqishi mumkin. Bu ishni yaxshi ko`rib qolgan kichikintoylar materiallarni o`zlari oladilar va ish boshlab yuboradilar. Lekin tarbiyachi bu ishga o`yinchoqlarni

yaxshi yasay olmaydigan, yasashni unchalik yaxshi ko`rmaydigan boshqa bolalarni ham jalb etishi mumkin. U bolalarni qiziqtirish uchun o`zi ham o`yinchoq yasash jarayoniga qo`shiladi. Ba`zi bolalarga muayyan mavzuni taklif qiladi. Masalan, bolalar birgalikda shug`ullanayotgan vaqtlarida biror ehtakning epizodini yoki magazin o`yini uchun sabzavot va ho`l mevalar yasaydilar. Bunday o`yinlar bolalarni birlashtiradi va o`yinchoq yasashni hali yaxshi uddalay olmayotgan bolalar o`rtoqlari qanday ishlayotganini kuzatib, ulardan o`yinchoq yasash usullarini o`rganadilar, o`z ishlarini boshqalarnikiga solishtirib ko`radilar, ular bilan maslahatlashadilar va asta-sekin mazkur faoliyatga qiziq boshlaydilar.

Bolalar uchun yozda katta imkoniyatlar tug`iladi, ular maydonchada o`yinchoq yasash bilan mustaqil holda shug`ullanadilar, har xil predmetlarni: hayvonlarni, uy hayvonlarini, hasharotlarni, idishlar va turli mazmundagi o`yinchoqlarni tasvirlaydilar. Bolalarning loy va plastilindan o`yinchoq yasashi — asosan tasavvur va fikrlash bo`yicha yasashdan iborat bo`lib, o`z qimmatiga ega. Chunki bolalar bunda mustaqil holda mavzu topadilar, ishni rejalashtiradilar, tasvirlashning tanish usullaridan foydalanadilar, o`zlari yangi usullarni o`ylab chiqaradilar.

Bolalar tasavvuri bo`yicha o`yinchoq yasash doimo predmet, uning shakli, mutanosibliги haqidagi bilimlarga asoslanadi. Bunday mashg`ulotlarda bolalar o`z ijodiy imkoniyatlarini ochadilar va predmetni tasvirlash ko`nikmalarini mustahkamlaydilar. Tez-tez o`yinchoq yasashga odatlangan bolalar mavzuni darrov o`ylab topadilar — ba`zan ularda ishga kirishmaslaridan oldin (masalan, sayrda ko`rganlari ta`siri bilan) biror g`oya vujudga keladi. Ayrim hollarda bola uni shu zahoti tarbiyachiga aytadi va kattalarning ishi - bolaning istagiga e`tibor bilan qarash va kechqurun unga shu istagini eslatib qo`yishdir. Shunday qilib, tarbiyachilar bolalarning o`yinchoq yasashga qiziqishini qo`llab-quvvatlab, ularda faoliyatning ana shu turi bilan shug`ullanish istagini kuchaytiradilar. Loy va plastilindan o`yinchoq yasashni o`rgatishning muvaffaqiyati ko`p jihatdan mashg`ulotda bolalarga rahbarlik qilish qanday amalga oshirilishiga bog`liqdir. Bunda asosiy vazifa bolalarni ishning umumiy borishini buzmay, g`oyani mustaqil holda hal qilishga yo`naltirishdan iboratdir. Masalan, biror idish yasalayotgan vaqtda boladan «Sen vazaning bandini unga qanday usul bilan o`rnatasan?», «Mana bu tog`orachaning hoshiyasini sen qanday rangga bo`yamoqchisan?», «Qani, o`ylab ko`r-chi, yana qanday oson usul bilan tuzdonga oyoq yasash mumkin?», — deb so`raladi. Agar bola omonat turadigan idish yasagan bo`lsa, uni mustahkam qilish to`g`risida o`ylab ko`rish tavsiya etiladi. Yoki boshqa bir misol: tarbiyachi bola yasagan jirafa oyoqlarining bir xil uzunlikda bo`lib qolganini ko`radi. Shunda bolaga “Bir o`ylab ko`r-chi, jirafaning oyoqlari qanaqa edi. Ularning uzunligi bir xilmidi?” - deydi. Agar bola savolga to`g`ri javob bersa, tarbiyachi ishni tekshirib ko`rishni va zarur tuzatishlar kiritishni aytadi. Mabodo, bola savolga noto`g`ri javob bersa, tarbiyachi xato nimadan iboratligini tushuntirib, figuraning mutanosibliğini eslatadi, bundan tashqari, u jirafaning rasmdagi tasvirini ko`rsatishi ham mumkin.

Loy va plastilindan yasalgan o`yinchoqning tarbiyaviy ahamiyati rang-barang va ko`p qirralidir. O`yinchoq o`yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o`ziga xos sherigi sifatida namoyon bo`ladi, uning shaxsiga katta ta`sir ko`rsatadi. U bolaga shunchalik yaqinki, bola o`zi yasagan o`yinchoqlarini sevadi, ularga bog`lanib qoladi, shu tufayli o`zini atrofdagi hayotning to`laonqlik a`zosi deb hisoblaydi. Loy va plastilindan yasalgan o`yinchoqlar bilan o`ynash

bolalarda avaylashni, e'tiborlilikni, mehribonlik va nafosatni uyg'otadi, ijobiy axloqiy kechinmalar tajribasini to'plashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sakulina N.P., Kamarova T.S. Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat.- T., "O'qituvchi", 1996.

Kamolova Azima

Shofirkon tuman 8-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi,

Qosimova Sarvara Bahodirovna

Shofirkon tuman 8-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

(Buxoro, O'zbekiston)

LOY VA PLASTILINDAN O`YINCHOQLAR YASASH ORQALI BOLALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

***Rezyume.** Maqolada loy va plastilindan o`yinchoqlar yasash orqali bolalar ijodkorligini rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** loy, plastilin, rasm chizish, tasavvur, o`yinchoq.*

Bolalar ijodkorligini rivojlantirish pedagogikaning dolzarb muammosidir. Chunki voqeligimiz yoshlarda tevarak-atrofdagi narsalarga ijodiy munosabatni, faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishni taqozo etadi. Biz bolalarimizda aql-idrokni, o'tkir zehni, tashabbusni, tadbirkorlik va fantaziyani tarbiyalamog`imiz kerak.

Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o`yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko`rsata olishlarini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Bog`cha bolasi ham san'atkor singari rasm chizish, loy va plastilin o`yinchoqlar yasashda o`z tajribasiga asoslangan g`oyani ro`yobga chiqarishga kirishadi. Bu g`oya mavzuning vujudga kelishini, uni ifodalash vositalarini qidirib topishni o`z ichiga oladi. Bog`cha bolalarining rasm chizishini yoki loy va plastilin o`yinchoqlar yasashini kuzatish ularning g`oyalari yo kattalarining topshiriqlari munosabati bilan, yo bo`lmasa qandaydir bir obrazning, materialning bevosita ta`siri bilan vujudga kelishini ko`rsatadi. Demak, kattalar ijodi singari bola ijodkorligining ham birinchi bosqichi atrofdagi voqelikni idrok ilish asosida g`oyaning - mavzuning vujudga kelishidan iboratdir. Lekin badiiy vositalarni oldindan qidirib ko`rish, o`z ishlarni rejalashtirish, uni o`ylab olish bola ijodi uchun xarakterli emas. Bola loy yoki plastilindan biror narsa yasash uchun mavzu tanlaganidan keyin o`sha zahoti uni tasvirlashga kirishadi. U tasvirlash jarayonidagina o`z ishining mazmuni to`g`risida fikr yuritadi, uni qanday bajarish, qanday vositalardan foydalanysh to`g`risida o`ylaydi, ya`ni san'atkor asosan oldindan o`ylab qo`yadigan barcha masalalarni bola ish jarayonida hal qiladi. San'atkor ijodining davri hamma ishni aniqlab olishga bog`liq bo`lib, g`oya amalga oshgunicha davom etadi, bog`cha yoshidagi bolada esa bu davr g`oyaning amalga oshishiga to`g`ri keladi. Bolalar ijodkorligining o`ziga xos ana shu xususiyati ularda analiz va sintez qobiliyati yetarli emasligi, ular o`z ishlarni oldindan rejalashtira olmasligi bilan izohlanadi. G`oyani amalga oshirish uchun tasavvurdagi barcha narsalar ichidan eng xarakterlilarini ajrata bilish, yaratiladigan obrazni xayolan tasavvur eta olish, tasviriy va texnik vositalarni tanlay bilish kerak. Bu ishlarning hammasi mukammal tafakkur jarayonlarini talab qiladi. Biroq, loy va plastilin o`yinchoqlar yasash bo`yicha olib borilgan tadqiqotlar va bolalar bog`chalari tajribasi ko`rsatadiki, bolalarni tasviriy san'at faoliyatiga o`rgatish bo`yicha doimiy ish olib borilsa, ularni o`z ishini oldindan o`ylashga odatlantirish mumkin. Bolada ijod kurtaklarini rivojlantirish vazifalari uning yoshiga xos anatomik-psixologik xususiyatlariga bog`liq bo`ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning predmetlar sifati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurining to'raligi uning analizatorlari qay darajada ishlashiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlar 6-7 yashar bolalarda ko'rish va sezish idroki yetarli darajada rivojlanishini ko'rsatadi. Kattalarning tegishli yolg'a solishi bilan kichikintoy predmetning barcha asosiy sifatlarini: shakli, mutanosibligi, rangi, tarkibiy qismlarini, shuningdek, fazodagi o'rmini idrok eta oladi. Bolalar idrokining ko'lamiga analizatorlarning rivojlanish darajasidan tashqari kuzatilayotgan obyektga qiziqish ham ta'sir ko'rsatadi.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashda bolalar ijodkorligini rivojlantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: faoliyatning mazkur turiga qiziqishni rivojlantirish; kichik guruhdan boshlab bolalarni predmetlarni kuzatishni o'rgatish yo'li bilan voqelikni idrok etish asosida, mustaqil izlash asosida predmetlar shaklini yaratishga o'rgatib borish; ilgari yasalgan shakllardan foydalanishga va ularni mujassamlashga odatlantirish. Har bir yosh guruhidagi bolalarga iloji boricha loy va plastilin o'yinchoqlar yasash usullaridan va tasvirlash vositalaridan erkin foydalanishni o'rgatib borish; bolalarni loy va plastilin o'yinchoqlar yasash uchun mavzularni mustaqil holda o'ylab topishga asta-sekin o'rgatib borish, buning uchun tevarakatrofni kuzatish, badiiy adabiyotlarni tinglash, turli rasmlarni tomosha qilish, san'at asarlarini ko'rish orqali idrok etilgan taassurotlardan foydalanish; bolalarni tarbiyachining ko'rsatmalarini faol idrok etish o'yinchoqlarning shakllarini, ularni yasash usul — tasvirlash vositalarini o'ylab topishda tashabbus

ko'rsatishga o'rgatish.

Bolalarda ijodkorlikning, biror mavzuni erkin tanlash va hal etish ko'nikmasining rivojlanishi ularning loy va plastilin o'yinchoqlar yasash texnikasini qanchalik puxta egallaganiga bog'liqligi tufayli ishning mana shu tomoniga katta e'tibor berish kerak. Har bir mashg'ulotda ijodiy xarakterdagi topshiriqlar bilan birga bolalarga o'yinchoqlar yasash texnikasini o'rgatish vazifasi ham qo'yiladi. Bola tasviriy va texnik usullarni qanchalik ko'p bilsa, uning o'yinchoqlar yasashi shunchalik mustaqil hamda ijodiy xarakter kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ularni

har doim predmetning harakati qiziqtiradi. Kichik guruhdagi bola hali obrazni harakatli tasvirlashni bilolmasligi sababli harakatni og'zaki sharhlaydi va ayni bir vaqtda o'yinchoqni bir joydan ikkinchi joyga surib o'ynaydi. Bog'chaning katta guruhida bolalar predmetlarning uncha murakkab bo'lmagan harakatini o'yinchoqlarda tasvirlay boshlaydilar (masalan, oyoqlarni qadam qo'yilayotgandek, qo'lni yuqoriga ko'tarilgan holda, gavdani sal oldinga engashtirib ishlaydilar). Tayyorlov guruhida harakatlarni tahlil qilishda umumiy tajribaga ega bo'ladilar. Ular qadam tashlash va boshqa harakatlarni tasvirlash uchun faqat qo'l va oyoqni ko'tarib o'rnatmay, ularni bukish ham kerakligini, shunda figura ifodalibroq bo'lishini tushunadilar. Katta guruhda bolalar avval harakatsiz figuralarni yasagan, keyin esa uning qismlarini kerakli holatda o'rnatib harakatlantira boshlagan bo'lsalar, tayyorlov guruhida loyning asosiy hajmi «Filing xartumi yaxshi chiqaypti» tasvirlanadigan predmetning mo'ljallangan holatiga yetish-yetmasligini darhol bila oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sakulina N.P., Kamarova T.S. Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat. - T., "O'qituvchi", 1996.

**Shovqiyeva Shohida,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
3-bosqich talabasi
(Tashkent, O'zbekiston)**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA
MEHR UYG'OTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

***Rezyume.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot, tarbiyachi, xalq og'zaki ijodi, tarbiya, odob*

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manbalardan biri kitobdir. Kitob o'qish uchun bo'lib ta'lim- tarbiya muassasalarida muntazam o'qish san'ati bilan tanishadilar. Tarbiyachi bolalarga tarbiya va bilim berishda asosiy manba bo'lgan kitobdan keng foydalanadi. Kitob kichkintoylar fikricha hamma narsasi bor, hamma narsaga javob beruvchi vosita sifatida tan olinadi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, kitob qanchalik qiziqarli, hissiyotlarga boy bo'lmasin, agar kitobxon qalbiga yetib bormasa, hayajon solmasa, bunday kitoblarning tarbiyaviy ta'siri kam bo'ladi.

Bolalarga atalgan kitoblarning maqsadi ularga tabiat ato etgan his- tuyg'ularni o'stirishdan iborat. Bunday kitoblarning bilvosita ta'siri bolalarning aqliga emas balki ularning his-tuyg'ulariga qaratilmog'i kerak. His bilishdan oldin bo'ladi, haqiqatni sezmagani kishi uni tushunmaydi, bilmaydi ham. Kattalarga oid bo'lgan nasalar bolalarga ham oiddir, faqat ularni bolalar tushunchasiga muvofiq suratda bayon qilmoq kerak, bu ishning eng muhim tomonlaridan biridir, degan edi V.G. Belinskiy.

Tarbiyaviy tizimda o'qishga rahbarlik qilishda hilma-xillik yo'nalishlarda ish olib borilar ekan, tarbiyachi kitobxonni tarbiyalashda doimo yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib tarbiyaviy ta'sirini oshirishga harakat qiladi. Tarbiyaviy tizimning muhim yo'nalishlaridan biri mehnat tarbiyasidir. Bolalar uchun yozilgan barcha kitoblar axloq va odob mavzusi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishdagi tarbiya umumiy tarbiya tizimining bir bo'laki hisoblanadi va doimo boshqa tarbiyaviy yo'nalishlar bilan birga olib boriladi. Kichik yoshdagi bolalar o'ta ta'sirchan va hissiyotga beriladigan bo'ladilar. Bu yoshda kitoblarda yozilgan narsalar, kattalar tomonidan aytilgan nasihatlar tezda qabul qilinadi. Ular o'zlarinikidan ko'ra boshqalarning axloqiy tomonlariga, qiliqlariga, qilgan ishlariga tezda baho beradilar. Ana shularni e'tiborga olib tarbiyachi suhbat, ovoqli va ifodali o'qish, ertak aytib berish, so'zlab berish kabi tadbirlar, mashg'ulotlar orqali o'qilgan yoki aytilgan, ertaklar qahramonlarning xilma-xil xislatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini, vaziyat va sharoitlarni tushuntirib berar ekan. Shunday xislatlar bolalarning o'zlarida ham borligini aytib o'tadi. Masalan, bolalarning juda ko'pchilgida uchraydigan maqtanchoqlikning yomonligi va uni nimalarga olib kelishi haqida o'zbek xalq

ertaklaridan “maqтанchoq quyon”ni o`qib bersa, halollik, to`g`rillikning afzalligi haqidagi “ O`g`ri va to`g`ri” ertagini aytib beradi.

Do`stlik va ayyorlik haqida suhbatlashib, Gulxaniyning “Toshbaqa bilan chayon, “Bo`ri bilan Tulki” ertagini tushuntirib tulki bo`rini aldab qop-qonga tushurib ayyorlik qilib qochib ketganini aytib beradi. Shunday odamlar bizning ichimizda ham bo`lib, birov boylikka, birov qo`rqanidan, birov mansabga o`tirish uchun do`st bo`ladi va keyinchalik ular baribir aldab ketadi. Haqiqiy do`st yaxshi va yomon kunlarda ham do`st bo`lib qolaveradi, deb xulosa qiladi.

Tarbiyachi bolalarga estetik tarbiya berishda quyidagi asoslarga tayanadi:

- a) Shoir yozuvchining mahorati, uslubi imkoniyati;
- b) Kitobning mazmuni, ma`nosi, kuchi g`oyasi badiiyligi;
- v) Tarbiyachining tayyorgarligi, uslubi bilimi va haqozo;

Mana shu uch holat birlashgandagina, hamkorlik bilan muvoffaqiyatga erishiladi. Tarbiyachi badiiy va san`at asarlari bilan ishlaganda estetik tarbiyaga ko`proq ahamiyat beradi. Chunki bu asarlarda insonning ruhiyati, xarakteri, faoliyati his-hayajoni, kechinmalari, tabiati dunyoda bo`layotgan voqea va hodisalarning hammasi bir butunligiga aks ettiriladi va bu bolaga ta`sir etadi.

She`riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg`ular va o`zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o`z tas`ir kuchiga ko`ra turlicha bo`ladi: hikoyalarda bolalar so`zlarning lo`ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she`rlarda o`zbekcha nutqning musiqiyiligi, ohangdorligini ilg`aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko`rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg`urishni o`rganganlaridan so`ng ular yaqinlari va atrofda odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg`ulari – birovning dardiga shyerik bo`lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko`rsatish qobiliyati uyg`ona boshlaydi. Bu prinsipiellik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir.

Xalq – bolalarning betakror o`qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko`ra bir-biridan zo`rg`a farq qiladigan so`zlarni hayron

qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik yumor, sanoq she`rlar – pedagogik ta`sir ko`rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo`rqoqlik, o`jarlik, injiqlik, faqat o`zini o`ylash kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir».

Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayvonot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o`z hikoyalari va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o`zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o`zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo`yadi. Yosh o`sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi

ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she`r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashev, Yo`ldoshev E. Kutubxona va kitobxon. Toshkent.: O`zbekiston nashriyoti. 2018y

Nizomova Indira Akramovna
Shofirkon tuman 8-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori,
Xakimova Dilnoza G`aniyevna
Shofirkon tuman maktabgacha ta'lim bo`limi Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim
tashkilotlari faoliyatini hamda o`qitishning muqobil shakllarini
tashkil etish sho`basi mudiri
(Buxoro, O`zbekiston)

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIKKA
MEHR UYG`OTISHNING YO`LLARI

***Rezyume.** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka mehr uyg`otishning yo`llari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so`zlar:** kitob, kitobxon, ovozi o`qish, so`zlab berish, bola.*

Ko`pgina maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqarli kitoblar berishini so`raydilar. Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan, kitobxonlarga mustaqil ravsihda kitob tanlash malakasini ham singdirib beradi. Shuning uchun bog`cha javonidagi kitoblarning katalog va kartotekalari rasman bo`lsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Kitobxonlarning yosh xususiyatida katta farq bo`lgani kabi ularning tushunishi va unga munosabatida ham katta farq qiladi. Bundan tashqari har bir kitobxonning o`ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqish mavjud bo`lib, tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg`ab olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlashii va ularga yordam berish zarur.

Bolaning ko`z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan, uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo`lib gavdalanish lozim. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbatiga bog`liq. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o`tishi lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kitob tanlashda kutubxonachiga yoki tarbiyachiga muhtojdirlar. Shuning uchun ham kutubxonani yoki tarbiyachi kitob tavsiyasining eng yaxshi usuli – suhbatdan foydalaniladi.

Tavsiyaviy suhbat o`z oldiga quyidagi maqsadlarni qo`yadi:

- bolaga kitob tanlashga yordam berish;
- kitobga nisbatan qiziqishni uyg`otish bolaning kitobga juda ham qiziqishi kitobni oxirigacha yakunlashiga yordam beradi;
- o`qishga qo`llanma berishdan iboratdir.

Tavsiyaviy suhbatda so`ralgan kitob xarakteriga, ya`ni so`roq motiviga bog`liq holda har xil tuziladi. Suhbat davomida bolalarga yoqqan yoki yoqishi mumkin bo`lgan bir necha kitoblarni ko`rsatadi, ularni qiziqтира oladigan jihadlarni aytib beradi. Masalan mehr oqibat tuyg`usini shakllantiruvchi “Yoriltosh ertagini bilasizmi?”. Bu kitob yetim qizlar Gulnora va Oymomo haqida. Gulnora juda chiroyli, chaqqon, mehribon, ishlab charchamaydigan qiz bo`ladi. Uning onasi vafot etganidan keyin otasi begona ayolga uylanadi. Ayol juda badjahl yomon bo`ladi.

Gulnora singlisini o`padi-da zor – zor yig`lab qochib ketadi. Uni quvlab kelayotganlar yetay deganda tog`dagi tosh yorilib Gulnora uning uchiga kirib ketadi. Quvlaganlarning hammasi kirib yoritosh desa ham tosh yorilmaydi. Lekin hech kim yo`g`ida singlisi kelib yoritosh desa u ochiladi, nimaga shunday bo`lganini kitobni o`qisalarining bilib olasizlar deb kitobxonni qiziqtirib kitoblar tavsiya etiladi.

Bolaga ertak kitoblar tavsiya qilinayotganda unga shu kitobning boshidan ozgina o`qib berib, kitob qahramonini harakterlab beradi. Ertaklarda ko`rsatilgan rasmlar ham muhim rol o`ynaydi. Bunda rasmlarning hammasini birdan ko`rsatish maqsadga muvofiqmas. Rasmlarni bolaning hayajonini kuzatgan holda asta – sekin ko`rsatish kerak. 1-2 ta asosiy rasmlarni ko`rgan bola kitob bilan birga shu kitobdagi epizodlarga, qahramonlarga, voqealarga, qahramonlarning harakteriga qiziqib qoladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga kitob tavsiya qilayotganda rasm ko`rsatish usuli ayniqsa muhimdir. Ular o`quv texnikasini yaxshi bilishmaydi, kitobdagi rasmlar ularni shu kitobga qiziqtiruvchi asosiy kuch bo`lib hisoblanadi. Tavsiya suhbatini kitobxonni rasmni va matini chuqur qabul qilishga tayyorlaydi.

Ovozli o`qish va so`zlab berish bolani kitobga jalb qilishning tabiiy usuli bo`lib, undan oilada ham keng foydalaniladi. Mashhur pedagog A.S. Makarenko oilada ovozi o`qish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlab: Imkoni boricha o`qish har kuni va doimiy ravishda olib borilishi lozim deb ta`kidlaydi.

Ovozli o`qish va so`zlab berish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda muhim o`rin egallaydi. Ular hali o`qish texnikasini yaxshi egallamagan bo`ladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar birinchi – ikkinchi yilda o`qishga qiynalishlari sababli o`qishdan ko`ra eshitishni yaxshi ko`radilar. Bundan tashqari, bolalar o`qishgagina emas, diqqat bilan eshitishga ham, eshitganlarini o`zlashtirishga va aytib berishga ham o`rganishlari kerak.

Ovozli o`qishga yoki so`zlab berishga xalq ertaklari juda qiziq manba bo`lib xizmat qiladi. Har xil fantastik sehrli ertaklarni so`zlab berish maqsadga muvofiq. Aniq va yorug` obrazli kichik, qiziqarli ma`nodor ertaklar bolalarni atroflarini o`rab turgan dunyo bilan tanishtiradi. Ularning ko`pgina savollarga javob beradi. Xalq ertaklariga xos bo`lgan xususiyat yaxshilikni yomonlik, rostni yolg`on ustidan g`alaba qilish xususiyati bolalarda haqqo`ylikni tarbiyalaydi. Natijada ertaklar bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg`otadi. Ammo hamma xalq ertaklari ham bolalarga to`g`ri kelavermaydi. Ertak tanlayotganda bolalarning yosh xususiyatiga, ertakning g`oyasi va mazmuniga e`tibor berish kerak.

Maktabgacha yoshdagi kitobxonlikka mehr uyg`otish yana bir usuli so`zlab berishdir. So`zlab berish asar tanlangandan so`ng birinchi marta o`qib, hamma tomoniga e`tibor berish kerak. Uning mazunini bilan shunday tanishtirish kerakki eshituvchilar ham tarbiyachi asardan qanday ta`sirlangan bo`lsa, shunday ta`sirlanishlari kerak. Shundagina kitobdagi hamma narsalar eshituvchilarning esida qoladi, ular holatlarni hatto so`zma – so`z bilib olishadi. So`zlab berishda ma`noga amal qilish lozim. Chunki so`zlab berishda juda buzib yuborish kitobxonlarni zeriktiradi.

Qo'chqarov Sherzod
Urganch davlat universiteti,
Qo'chqarov Bekzod
O'zbekiston Milliy universiteti,
Nurjonova Gulnoza
UrDU, Psixologiya 1-kurs Magistranti
(Urganch, O'zbekiston)

SURUNKALI SOMATIK KASALLIKLARDA O'SMIRLAR XAYOT SIFATINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar va o'smirlar o'rtasida uchraydigan somatik kasalliklarining ko'payishi, psixologik omillar va yoshlarni turmush tarzidagi o'ziga xosligi, kasallik sharoitida o'smirning hayot sifati uning hayotining integral xarakteristikasi, shu jumladan jismoniy, psixologik va ijtimoiy faoliyati, shuningdek sub'ektiv idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga e'tibor berilgan.*

Kalit so'zlar: *somatik kasalliklar, rehabilitatsiya, tibbiyot, texnologiyalar, o'smirning hayot sifati, sub'ektiv, psixologik, ijtimoiy, jismoniy, shaxsning shakllanishi, debyuti, stress, fenomeni, o'smirlik davri, o'z-o'zini ongini shakllantirish.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрен рост соматических заболеваний среди детей и подростков, психологические факторы и специфика образа жизни молодежи, качество жизни подростка в условиях заболевания является интегральной характеристикой его жизни, в том числе физической, психологической и социальной деятельности, а также изучение особенностей субъективного восприятия.*

Ключевые слова: *соматические заболевания, реабилитация, медицина, технологии, качество жизни подростков, субъективное, психологическое, социальное, физическое, формирование личности, дебют, стресс, феномен, подростковый возраст, само-о'формирование сознания.*

Bolalar va o'smirlar o'rtasida kasallanishni ko'payish masalalarining dolzarbligi hozirgi vaqtda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, balog'atga etmagan bemorlarda surunkali somatik kasalliklar diagnostikasining chastotasi oshishi kuzatilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, davolash va rehabilitatsiya tadbirlarining samaradorligini baholashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu bemorlarning hayot sifati darajasidir.

Tibbiyot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va tibbiy yordam sifating yaxshilanishiga qaramay, bemorlar davolanish natijasida o'z hayotlaridan har doim ham mamnun emaslar.

A. A. Novik va T. I. Ionova (2013) tomonidan hayot sifating ta'rifi tayanamiz. Shunga ko'ra, kasallik sharoitida o'smirning hayot sifati uning hayotining integral xarakteristikasi, shu jumladan jismoniy, psixologik va ijtimoiy faoliyati, shuningdek sub'ektiv idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar kasallikning bemorlarning hayotiga katta hissa qo'shganligini ko'rsatadi. Qanday bo'lmasin, kasallik debyut

yoshidan qat'i nazar, hayot uchun maxsus shartlarni belgilaydi. Bolalik va o'smirlik davrida u doimo shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Surunkali somatik kasallikning debyuti bolani ham, uning butun oilasini ham yangi, maxsus sharoitlarga qo'yadi.

So'nggi tadqiqotlar stresslilik fenomenini birinchi o'ringa qo'ydi tashxis qo'yish. Bolaning tajribasining intensivligi turli omillarga, jumladan, uning yoshiga, kasallikning og'irligiga, ma'lum bir kasallik haqida mavjud bilimlarga va ota-onalarning reaksiyalariga bog'liq. Biroq, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tashxis qo'yish sharoitida stress darajasi travmadan keyingi stress buzilishining klinik ko'rinishi bilan taqqoslanadigan reaksiyalarga erishishi mumkin va bolaning ruhiy moslashuvining turli belgilarining paydo bo'lishi istisno qilinmaydi.

O'smirlik davrida surunkali kasallikning boshlanishi butunlay boshqacha tendentsiyalarni belgilaydi. Ular kelajak istiqbollarini shakllantirish jarayonlari, shuningdek, ajralib chiqish va o'z-o'zini ongni shakllantirish jarayonlarini aktualashtirish bilan o'zaro bog'liqdir. Tashxis qo'yish holatida o'smir hissiy shokni boshdan kechiradi, bu shaxsiyat rivojlanishining ushbu bosqichida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tengdoshlari bilan muloqot qilishda mumkin bo'lgan cheklovlar haqida tashvishlanishdan kelib chiqadi. Ushbu bosqich uchun begonalashish, yolg'izlikning eng xarakterli tuyg'ulari.

Bundan tashqari, bu erda alohida rol o'ynaydi, bu yoshda bir oz realizmga ega bo'lishni boshlaydigan kelajak uchun rejalarning qulashi. Shu munosabat bilan, o'smirlik mavjud kasallikning kuchayishini ko'proq tashvishli idrok etish bilan tavsiflanadi. Kelajak noaniq, qo'rqinchli bo'ladi, ko'p qo'rquvlarni keltirib chiqaradi, bu ko'pincha o'smirning kasallik bilan bog'liq cheklovlarni bilishi bilan bog'liq.

Hayot sifatining qoniqarli darajasiga erishishning mumkin emasligi, shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonchsizlik darajasining pasayishi bilan bog'liq. Biz ishonamizki, bu holda o'z-o'zini hurmat qilish darajasi va profili o'rtasidagi munosabatlar hayot sifatiga ta'sir qiladi va hissiy o'zini o'zi boshqarish jarayonlari bilan bog'liq yagona mexanizm sifatida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik moslashuvning buzilishi surunkali somatik kasallikning mavjudligining majburiy natijasi emas. Ba'zi hollarda mobilizatsiya va aqliy tartibga solishning kompensatsion jarayonlarini kiritish qayd etilgan boshqa tendentsiya aniqlanadi.

Kasallikning holatlari, masalan, o'smirni kasallik tufayli yuzaga keladigan to'siqlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan kognitiv faollikka undashi mumkin. Shu bilan birga, o'smir uchun mavjud bo'lgan hayot sohalarida o'zini o'zi anglash uchun motivatsiya safarbar qilinadi.

Kasallik bilan kurashishning o'ziga xos xususiyatlari qiyin hayotiy vaziyatlarga duch kelgan o'spirin bilan kurashishning odatiy usullariga bog'liq bo'ladi. Hayotda yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan o'smir ota-onasidan yordam so'rashi tabiiy. Biroq, ota-onalarning o'zlari moslashish qobiliyatining pasayishiga duch kelishlari mumkin, bu esa zarur yordamning etishmasligi tufayli o'smirning ahvolini og'irlashtiradi.

Kasallik sharoitida bolalar va o'smirlarning hissiy, shaxsiy xususiyatlari va hayot sifatini tavsiflovchi juda ko'p sonli zamonaviy tadqiqotlarga qaramay, surunkali kasalliklarga chalingan o'smirlarning hayot sifati kontekstida psixologik omillarni tavsiflovchi tadqiqotlar etishmaydi. somatik kasalliklar.

Stress (ing. stress — bosim, kuchlanish, tanglik) - odam va hayvonlarda kuchli ta'sirotlar natijasida sodir bo'ladigan o'ta hayajonlanish, asabiylik holati. Organizmda har xil ta'sirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya. "Stress." terminini kanadalik patolog G. Selye ta'riflab, tibbiyotga kiritgan (1936). Olim stress holatiga keluvchi omilni stressorlar deb, ular ta'sirida organizmda ro'y beradigan o'zgarishlarni moslashish (adaptatsiya) sindromi deb atadi. Fizik (issiq, sovuq, shikastlanish va boshqalar) va psixik (qo'rquv, qattiq tovush, o'ta xursandchilik) stressorlar ajratiladi. Organizmda bu omillar ta'sirini yengishga qaratilgan moslashuvchi biokimyoviy va fiziologik o'zgarishlar rivojlanadi, bu stressorning kuchi, ta'sir etish muddati, odam yoki hayvonning fiziologik sistemasi va ruhiy holatiga bog'liq. Nerv sistemasi yuqori rivojlangan odam va hayvonlarda, his-tuyg'u ko'pincha stressor vazifasini o'taydi va u fizik stressor ta'siriga zamin tug'diradi. Odamda bir xil kuchdagi stress ham xavfli, ham ijobiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun ma'lum bir darajadagi Stresslarsiz faol hayot kechirib bo'lmaydi, chunki stresslar bo'lmisligi bu o'lim bilan barobar degan edi G. Selye. Demak, stresslar nafaqat xavfli, balki organizm uchun foydali ham bo'lishi mumkin (eustress), bu holat organizm imkoniyatlarini ishga soladi, salbiy ta'sirotlarga chidamliligini oshiradi (masalan, infeksiyalar, qon yo'qotish va boshqalar), ma'lum bir somatik kasalliklar (mas, yara kasalligi, allergiya, yurak kasalliklari va boshqalar) kechishini yengillashtiradi yoki bemorning ulardan form bo'lishiga yordam beradi. Zararli Stresslar (distress) organizm rezistentligini pasaytiradi, ko'pgina kasalliklarning kechishini og'irlashtiradi. Stress ta'sirida kasalliklar paydo bo'lishida organizmning dastlabki holati katta ahamiyatga ega. Mas, gipertoniya kasalligi bilan og'rigan bemorda Stress og'irroq, ya'ni gipertonik krizislar bilan kechadi.

G. Selye, Stress natijasida rivojlanadigan kasalliklar yo stressorning kuchli ta'sir etishi, yoki gormonal tizimning "noto'g'ri" reaksiya berishiga bog'liq deb hisoblagan. Chunki ayrim hollarda distress uncha kuchli bo'lmagan stressor ta'sirida yuzaga keladi. Stressning organizmga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi organizmning ushbu stressorga nisbatan reaksiyasiga bog'liq. Stress xolatini faol o'zgartirishga qaratilgan choralar organizm chidamliligini oshiradi va natijada kasallik rivojlanmaydi yoki, aksincha, faol kurashish bo'lmasa, moslashish sindromi susayib, og'ir holatlarda organizmni nobud bo'lishigacha olib kelishi ham mumkin. Organizmdagi hamma o'zgarishlarni nazorat qilishda miyadagi katexolaminlar miqdori katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, nerv sistemasi organizmning Stressga reaksiya berish holatini belgilaydi (qarang Neyrogomoral regulyasiya).

Hozirgi "Stress" termini juda keng ma'noda tushuniladi, mas, nerv sistemasi bo'lmagan quyi hayvonlar, hatto o'simliklarda ham suv miqdori yoki harorat keskin o'zgarsa, ularda kechayotgan fiziologik jarayonlar buziladi.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida kasallanishning o'sishi bilan bog'liq muammolar hozirgi vaqtda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Buni so'nggi o'n yillikdagi statistik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Voyaga etmagan bemorlar surunkali somatik kasalliklardan ko'proq azob chekishadi. Shu bilan birga, ko'plab kasalliklar sezilarli darajada "yoshroq" va avvalroq kechroq namoyon bo'ladigan yosh davrlarida aniqlanadi ontogenez bosqichlari (Dedov I.I. va boshqalar). Shu bilan birga, baholashning eng muhim ko'rsatkichi tibbiy muassasalar sharoitida davolash va reabilitatsiya tadbirlari sifatining samaradorligi bemorlarning hayot sifatining ko'rsatkichidir. (Yuriyev V.K., Sayfulin M.X.) Zamonaviy sharoitda shaxsiylashtirilgan tibbiyot

dasturlarini ishlab chiqish tobora ko'proq samarali tibbiy yordam ko'rsatmoqda hayot davomiyligi. Terapevtik va rekreatsion tadbirlarga qaratilgan surunkali kasalliklarga chalingan odamlarning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash; voyaga etmaganlarning hayotini normallashtirishga hissa qo'shish. Lekin, davolanish natijasida jismoniy holati yaxshilanganiga qaramay, o'smir har doim ham hayotidan mamnun emas.

ADABIYOTLAR:

1. Абросимов И. Н. Выбор копинг-стратегии как фактор психологической адаптации пациента к хроническому соматическому заболеванию / И. Н. Абросимов, В. М. Ялтонский // Вестник Омского университета. Серия «Психология». - 2018.
2. Агеева-Подобед И. Б. Психологическая и социально-культурная адаптация детей к условиям стационарного лечения / И. Б. Агеева-Подобед // Педиатрический вестник Южного Урала. - 2014.
3. Александрова О. В. Психологические особенности детей и подростков в восприятии ими болезни на разных этапах ее течения / О. В. Александрова, А. Е. Ткаченко, И. В. Кушнарёва // Педиатр. - 2018.
4. Shamdiev E.C., Tursunhodjaeva L.A, «Psihoterapiya» - T.: 2011.

Qurbonova Shafoat Xayriddinovna
Shofirkon tuman 8-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi,
Yuldashova Nasiba Nusratovna
Shofirkon tuman 8-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi
(Buxoro, O'zbekiston)

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR
TARBIYASIDA BOLALAR ADABIYOTINING O'RNINI

***Rezyume.** Maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasida bolalar adabiyotining o'rnini haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** maktabgacha tarbiya, badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti, ertak*

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligiga, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, «Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi» - degan edi.

Badiiy adabiyotning qimmatini bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqyealar, bolalarning o'yinlari, ertaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi. Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalari ko'rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan

tarbiyalashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqaviyligi, tilning o'tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so'z qudratini his etadilar, uncha katta bo'lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she'rlarini tez va osongina eslab qoladilar.

Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo'lib qoladi. Xalq, og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga,

yovuzlikka, nohaqlikka, qizg`anchilikka, makr-xiyalaga nisbatan murosasiz bo`lishga majbur etadi.

Bolalarga o`qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she`r shaklidagi ertaklar, dostonlar, xazil she`rlari, topishmoqlar, masallar kiradi. Bolalar bog`chasi dasturida ko`rsatilgan asarlarning ko`pchiligi bolalar adabiyotining oltin fondini tashkil etadi. Har yili bolalar uchun yangi kitoblar nashr etib turiladi. Tarbiyachi bosmadan chiqayotgan kitoblarni kuzatib borishi, jurnallardagi tanqidiy maqolalarni o`qishi va bolalar kitoblarining muhokama etilishida ishtirok etishi kerak. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko`p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Bolalar bog`chasining muhim vazifasi bolalarning asarlar mazmunini o`zlashtirib olishlariga, ularni to`g`ri tushinishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari lozim.

Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko`nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o`zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg`ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Bolalar bog`chasida asarning mazmuni va formalari analiz qilishning ba`zi elementlari ham tarkib toptiriladi. Har bir bola maktabga o`tish paytida asarda hikoya qilangan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o`z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (she`r, hikoya, ertak) lozim.

Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o`qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko`zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo`lish ko`nikmalarini tarbiyalash zarur. Bog`cha bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidaga taassurotlarni o`rtoqlashish istagi va ko`nikmasini tarbiyalashi lozim. Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo`lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya`ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o`zining tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o`zaro munosabatlarini, o`yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi.

Tarbiyachi asar tanlagach, bolalarga uni qanday yetkazish lozimligini aniqlab olishi kerak. Notanish so`zlari ko`p bo`lgani uchun bolalar mazmunini tushuna olmaydigan asarni o`qimagan ma`qul. O`tmishda tarixiy davr bilan bog`liq bo`lgan mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarida, masalan, A.S. Pushkin ertaklarida, xalq ertaklarida uchraydigan juda ko`p notanish so`zlarni tushuntirish kerakmi? degan savol tug`iladi. Bu so`zlar bolalarning asar mazmunini tushunib olishlariga xalaqit bermaydimi, shuning uchun ularni tushuntirmasa ham bo`ladi. Badiiy adabiyotdan foydalanadigan mashg`ulotlar g`oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, xech narsa bolalarni eshitishdan chalg`itmasligi lozim. Mashg`ulotlarni tez uyushtirish, uni bolalar adabiyotiga xos sog`lom, optimistik xarakterda, xushchaqchaqlik bilan o`tkazish kerak. Tarbiyachi bolalarni xushmuomalalik va osiyishtalik bilan o`tirishga taklif etib, bolalarning qanday o`tirganini tekshirib, mashg`ulotni boshlaydi. Mashg`ulot boshlangan vaqtdayoq bolalarning diqqatini jalb etish juda muhim. Bunga ogohlantirish, po`pisa qilish («Eshitinglar, keyin sizlardan so`rayman») bilan emas, balki qiziqarli

muqaddima so`zi, muqaddima suhbat bilan erishish mumkin. Chunki ularda kitob mazmuniga qarab yorqin surat, topishmoq, bolalar tajribasidan va hokazolardan foydalansa bo`ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o`stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2006 yil.

Rahimova Shoirra Adilbekovna
O'qituvchi
UrDU
(Urganch, O'zbekiston)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK QOBILIYATLARINI OSHIRISHDA MATEMATIK ERTAKLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning hayotiy mazmunli matematik ertaklardan keng foydalanish va shu asosda mantiqiy biri-biriga bog'langan tushunchalar, ta'riflar, qoidalar va xulosalarni keltirib chiqarish o'quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matematik ertak, ta'rif, matematik qobiliyat, matematik tasavvur, tafakkur.

Annotation. In this article, it is given the development of pupils' mathematical skills by making extensive use of vital mathematical tales and drawing logical, interconnected concepts, definitions, rules, and conclusions.

Keywords: mathematical tale, definition, mathematical ability, mathematical imagination, thinking.

Аннотация. В этой статье обсуждается развитие математических навыков учащихся путем широкого использования жизненно важных математических сказок и составления логических, взаимосвязанных понятий, определений, правил и выводов.

Ключевые слова: математическая сказка, определение, математические способности, математическое воображение, мышление.

Sportchilarning chetga chiqishi. Sporti yuksak rivojlangan, iqtisodiyoti ustun mamlakatlar yosh sportchilarni o'ziga chaqirib olish holatlari kuchaymoqda. Bu yosh sportchilar o'zga mamlakatning bayrog'i ostida maydonga chiqishmoqda. Braziliyada o'tkazilgan JCH ning

g'olibi Germaniya terma jamoasining olti nafar a'zosi ajnabiy sportchilar edi. Sochi-2014 olimpiya o'yinlarida Rossiya qo'lga kiritgan medallarning 14% i chet eldan kelgan sportchilar hissasiga to'g'ri kelgan. Rossiya hukumati mamlakat jamoalarida xorijlik sportchilar soni umumiy sportchilar sonining chorak qismidan oshmasligini belgilab beruvchi hujjat qabul qiladi [2].

Jahonning yetakchi tashkilotlari, yetakchi mamlakatlari turli sohadagi kelishmovchiliklarini hal etishda sportni vosita qilish, sportning xalqaro maydondagi mavqeidan foydalanishga intilishga urinishmoqda. Albatta, bu ijobiy holat. Doimiy raqobatda bo'lgan davlatlar sport maydonlaridagi uchrashuvlar sabab do'st davlatga aylansa, turli xil irq, din, mazhab vakillari ahil, inoq bo'lib ketishsa buning nimasi yomon? Lekin sport jazo vositasi sifatida foydalanish teskari natija berishi ham mumkin. Antverpenda (Bel'giya) o'tkazilishi belgilangan VII olimpiada o'yinlariga Olimpiya qo'mitasi qaroriga binoan I jahon urushi sababchisi hisoblangan Germaniya va unga ittifoqdosh bo'lgan mamlakatlarning olimpiada o'yinlarida ishtirok etishi ta'qiqlab qo'yildi. Shuningdek, Sobiq ittifoq vakillarining ham olimpiada uchrashuvlaridagi ishtiroki man etildi. 1952 -yil Xel'sinkidagi (Finlyandiya) XV olimpiada o'yinlarida ilk marotaba SSSR (300 ga yaqin sportchilar bilan) ishtirok etdi. Yuqorida aytib o'tilgan 1980- yil Moskvada (SSSR), 1984 yil Los-Anjelosda (AQSH) o'tkazilgan olimpiya o'yinlarini ham bunga misol qilib aytish mumkin. Bolqon, Kavkazdagi, Sharqiy Yevropadagi ba'zi kelishmovchilik tufayli Rossiya-Ukraina, Rossiya-Gruziya, Armaniston-Ozarbayjon, Ispaniya-Gibraltar terma jamoalarining o'zaro guruh bosqichlarida uchrashuvi man etilgan. Lekin negadir oktyabr oyining (2014 -yil) o'rtalariga belgilangan doimiy raqobatda bo'lgan Serbiya-Albaniya uchrashuviga ruxsat berilishi tushunarsiz holat. O'yinning 42 daqiqasiga kelib maydon uzra Buyuk Albaniya banneri, alban millatchilarining bayrog'i ilingan uchuvchisiz boshqariladigan vertolyotning ucha boshlashi serb futbolchilarining jiddiy noroziligiga sabab bo'ldi. Serblar kapitani Stefan Mitrovich aytishiga qaraganda u janjalga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan bu bayroqni shunchaki olib tashlashga harakat qilgan. Natijada katta janjal kelib chiqdi[3]. O'yinni davom ettirish imkoni bo'lmadi.

Ijtimoiy hayot o'zgarishlarini xolisona baholash, uni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xoli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy hayot g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanishi uning biror-bir sohasi mafkuralashtirilmasligi zarur. Lekin bugungi global dunyoda uni ayrim geosiyosiy va mafkuraviy maqsadlar yo'lida foydalanishga urinishlar mavjudligini ta'kidlash lozim, bunda iqtisodiy bosim o'tkazish, noxolis sanksiyalar qo'llash, ayrim yoshlarning ong va tafakkurini manipulyatsiya qilishga urinishlar, "vatansizlik" g'oyasini targ'ib qilish yoshlarni vatanga bo'lgan dahldorlik hissiga sakbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy hayot sohalaridagi muammolarning hal etib borilishi esa ularni g'oyaviy-mafkuraviy tahdid ko'rinishlaridan himoya qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Letnie_Olimpiyskie_igri
2. <http://ria.ru/sport/20120417/628733993.html#ixzz3HMUxWaFI>
3. <http://www.championat.com/football/article-207575-match-serbija-albanija-sorvan.html>

SECTION: PHYSICAL CULTURE

Bunyod Shukurov,
Uzbek state art and culture
Institute of Folk Art, Faculty
“Establishment of cultural and art institutions
3 course student of the direction "Development and management"

THE OWNER OF THE HEART WHO ROBBED THE PROPERTY OF THE SOUL

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining murakkablik xususiyatlari, asarlarida talqin qilingan odamiylik va insoniylik fazilatlarini xususida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, Navoiy ijodining umumbashariyat va xalqlar oldida qanchalik darajada ma'naviy ozuqa bera olishi, ijod olamida botiniy va zohiriy tuyg'ularni to'g'ri tarbiyalash kabi xususiyatlarni o'zida jamlagan.

Kalit so'z: Navoiy ijodi, zullinisonayn, odamiylik, ijtimoiy hayot, botiniy tuyg'ular, foniy, turkiy til

Annotation: This article provides detailed information on the complexity of Alisher Navoi's work, the humane and humane qualities interpreted in his works. It is also the universality of Navoi's work and the extent to which it can provide spiritual nourishment to the people, and properly nurture the inner and outer senses in the world of creation.

Keywords: Navoi's work, Zullinisonayn, humanity, social life, inner feelings, fan, Turkish language

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о сложности творчества Алишера Навои, интерпретированных в его произведениях гуманных и человеческих качествах. Это еще и универсальность творчества Навои и то, насколько оно может дать духовную пищу людям, правильно взрастить внутренние и внешние чувства в мире творения.

Ключевые слова: творчество Навои, Зуллинисонайн, человечество, общественная жизнь, внутренние переживания, вера.

“No one has been able to recite Turkish poetry better than him
and could not paint the lines of poetry better than him. ”

(Hakimshah Qazvini)

Alisher Navoi is one of the great figures in the history of Uzbek culture and literature.

He is a man who has dedicated his life, and his creativity, to the truth and to the people.

He has a special place in the history of our culture as a lyric and epic poet, literary scholar, translator.

The works of great people have always played an important role in human education. Zahiriddin Muhammad Babur testified, “Alisherbek was a unique man. They recited poems in Turkish, but no one told them much. He wrote six Masnavi books, five in response to Hamsa, and another in Lison ut-tayr in Mantiq ut-tayr. He has arranged four ghazals: "Gharayib us-sig'ar", "Navodir ush-shabab", "Badoyi ul-vasat", "Favoyid ul-kibar". there is also a good rhyme. I have some other musannafoti, which is a lower and slower phenomenon for these people. He compiled his essays in imitation of Mawlana Abdurahman Jami. Khasiyat Kalam, I have finished and collected every letter for everyone for every work. ”[]

Navoi's full name is Mir Nizamiddin Alisher Navoi The word "Mir" [] is an abbreviated form of the word amir and is the name of an action in the royal palace. The word "regulation" [] means direction, rule. Navoi was a representative of the great religion of his time, and when Giyosiddin Muhammad named his son Alisher, he dreamed that he would resemble one of the Companions of the Prophet, Ali, and the word "lion" was taken from Ali. The Prophet, may Allah bless him and grant him peace, used to say, "Ali is the lion of Allah." It is the nickname of the Navoi poet, derived from the word "Navo" []. At the heart of this word are the meanings of "tune," "happiness," "enjoyment," "singing." The poet based his nickname on the word "bahra".

Although Navoi used the pseudonym Navoi for his works in Turkish and Foni for his works in Persian-Tajik, we find in some sources that he used the pseudonym Foni for his works in Turkish and Navoi for his works in Persian-Tajik.

Indeed, Navoi made a great contribution to the development of the Turkish language. His contemporary and student, the historian Khandamir, also said of Navoi: edi ”[]

Navoi, who fought for the service of fiction to life and the needs of society, enriches the themes, ideological motives and images of lyrical poetry. The human heart is a fragrant flower, Navoi

is a flower ifori, that is, a unique and multifaceted creator who can find his way into the hearts of men. Alisher Navoi embodied the heroes of his works in such a way that the beauty of the images in them not only warms people's hearts, but also gives them a special charm.

Life is so unfaithful that we emerge from nothingness and go to nothingness. In it both the good man and the bad man are born and leave this world. In this transient world, a person who spends his life meaningfully will remain forever in every heart. In particular, Navoi lives forever in the hearts. Navoi's works are an example of calling each of us to the right path.

"It simply came to our notice then

It is obligatory upon you to grieve before you die,

It is impossible to pass the world unfinished

Erur comes out of the bathroom dirty. "[3]

So, it is clear that on the continent, the poet encourages people to grow in every way. In each of Navoi's works we can see how deeply he approached the issues of morality. At the same time, the poet emphasizes that the more irrational it is to go to the bathroom, the more absurd it is to come into the world immature.

Navoi knew how to play the words and composed melodies. Navoi, who still lives, composed the song "Qari navo". Navoi also drew great pictures. The picture of the chain poem that has come down to us was drawn by Navoi. Navoi was not only a versatile artist, but also a mature statesman and public figure of his time. In particular, his closest friend, Hussein Boykaro, served during his reign, at the seal level, and later as a minister. In the person of Navoi, we can see the image of a patriotic man who is ready to give his life for his country. It was better for him to serve the people, not the career, the glory. It should be noted that Navoi has built more than 300 facilities at his own expense in Herat and throughout Khorasan. It is obvious that Navoi was a man with open arms and ready to do anything for his people.

We glorify the name of Alisher Navoi. Although he was a great man, he was a very humble, kind, patriotic and noble man. Navoi is a noble, humble and loyal man. His heart shone like the sun, and he was a great man who will be remembered for his good deeds throughout his life. The great poet, thinker, statesman died on January 3, 1501. This incident has become a tragedy for Navoi's relatives, not only for his relatives, but for the whole nation.

Every house mourned his death,
Figs came from every corner of the country.
Iron-hearted, stone-hearted people, too
They won the blood of this terrible tragedy. [2]

(Muhammad Amin)

In conclusion, we can say a lot about Alisher Navoi. We can know Alisher Navoi not only as a person, but also as a perfect person. In Oybek's novel Navoi, at a time when Hussein Bayqara was in a hurry to enter the war and his officials were also supporting Hussein Bayqara, Navoi expressed a reasonable opinion. "The king, the first to start a war, looks cowardly. You must wait for the right time, so that there is no bloodshed." After that, Hussein Bayqara will not rush into the war and this war will end in a truce. We can see that Navoi's thoughtful thinking reflects peace and humanity. Anyone who reads his lyrics, poems and poems will enjoy it. Reading Navoi's works teaches everyone a sense of homeland, love for the spirit of ancestors, a culture of mutual respect and communication between people. The past cannot be undone. So every day is history. What name do we leave of ourselves in history? Ask yourself a question? Dear contemporaries!

And the memory of Navoi lives and will live in the depths of our hearts every day, every minute.

REFERENCES

1. Available at <https://kh-davron.uz/>.
2. From the site <https://forum.ziyouz.com/>.
3. The 10th Continent of The Strange Cow
4. From the textbook "Literature" (Bakijon Tokhliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmanova. Textbook for students of 10th grade of secondary schools and secondary special, vocational education. State Scientific Publishing House "National Encyclopedia of Uzbekistan", Tashkent-2017) .

Sherov Zokir
Urganch davlat universiteti,
Qarriyev Bekzod
UrDU Jismoniy madaniyat 1 kurs magistir
(Urganch, O'zbekiston)

G'OVLAR OSHA YUGURUVCHILADA YILLIK TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISH

Annotatsiya. *ushbu maqolada g'ovlar osha yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik davridagi mashg'ulotlarni rejalashtirishda sportchilarga berilgan yuklamalarni to'g'ri berish va to'siqlardan yugurishni texnikasini mukammal urganishga e'tibor berilgan. Maqolada ilmiy uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar taxlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *mukammal yugurish texnikasi, tezlik, maxsus chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik, alaktat-anaerob, anaerob-glikolitik, aralash anaerob-aerob, ilmiy, uslubiy, adabiyotlar, yuklamalar.*

Аннотация. *В данной статье акцентируется внимание на точности даваемых спортсменам нагрузок и совершенном изучении техники бега через препятствия при планировании годовой подготовки бегунов с барьерами. В статье анализируется научная литература и исследования.*

Ключевые слова: *отличная техника бега, скорость, специальная выносливость, ловкость, гибкость, алактатно-анаэробная, анаэробно-гликолитическая, смешанная анаэробно-аэробная, научная, методическая, литература, нагрузка.*

400 m t/o tezlikda yugurish yugurish turlaridan eng qiyin mashqlardan biri bo'lib, sportchi tanasiga nihoyatda yuqori talablar qo'yadi. Bu masofada yuqori sport natijalariga erishish uchun mukammal yugurish texnikasi, tezlik sifatlarining yuqori darajada rivojlanganligi, tezlik va maxsus chidamlilik, shuningdek, chaqqonlik va egiluvchanlik bo'lishi kerak. 400 m t/o masofani juda yuqori tezlik bilan engib o'tish mumkin (to'siqsiz 400 m yugurish tezligining 92-96%).

To'siqlarni joylashtirish: birinchi to'siq 45 m gacha, to'siqlar orasidagi masofa 35 m, to'siq balandligi 91,4 sm. Ularni to'g'ri chiziq va burilish bo'yicha yengib o'tish zarurati, masofaning oxirgi choragida kuchli charchoq fonida yugurish 400 m masofaga to'siqlardan o'tish texnikasining o'ziga xos xususiyatlarini va to'siqlardan o'tuvchilarning texnik mahoratini belgilovchi omillardir. 400 t/o tezlikda to'siqlarni yengib o'tish texnikasi o'zining asosiy xususiyatlariga ko'ra qisqa to'siqli masofalarda to'siqlarni yengib o'tish texnikasidan amalda farq qilmaydi.

Turli tadqiqotlar natijalari (V.G. Alabin, M.I. Dolgiy, A.V. Karasev, V.V. Stepanov, M.M. Maisutovich, C. Gevat) shuni ko'rsatadi 400 metrga to'siqlar bilan yugurishda sport ko'rsatkichlari ko'p jihatdan maxsus chidamlilikni rivojlantirish darajasiga bog'liq. Biroq, hozirgi vaqtda ilmiy va uslubiy adabiyotlarda rivojlanishning samarali usullari mavjud emas lekin

adabiy manbaalarga qaraganda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga ko'proq qaratilganini ko'rish mumkin.

Mashg'ulotlarda 400 metrga to'siqlardan otish maxsus chidamlilikni rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida qaraladi. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda yuklamalar hisobiga asoslangan mashqlar tasnifi qo'llaniladi mushak faoliyatini energiya bilan ta'minlash mexanizmlari. Bunday tasnif berilgan yuklamalarni to'rtta quvvat zonasiga bo'linishni o'z ichiga oladi (shunga ko'ra yo'nalishlari): alaktat-anaerob, anaerob-glikolitik, aralash anaerob-aerob va aerob (N.I. Volkov, A.L. Novikov, M.R. Smirnov)

Ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili mualliflar tomonidan taklif qilinganligini ko'rsatadiki to'siqlarni o'rgatishda etarlicha katta miqdordagi yuklamalardan foydalanish aerob yuklamalar ham tayyorgarlik, ham yillik o'quv tsiklining raqobat davrlari, asosiy yuklammalarning hajmidan alaktat-anaerob yo'nalishi ortish tendentsiyasiga ega musobaqaga tayyorgarlik davri. Asosiy yuklammalarning hajmlari anaerob-glikolitik va aralash anaerob-aerob yo'nalishi ular juda xilma-xil bo'lib, batafsil ko'rib chiqishni talab qilinishini bir guruh olimlar tavsiya qilganlar.

Standart metodlardan foydalanish imkoniyatini o'rganish uchun maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan guruh va ta'riflar turli yo'nalishdagi yuklarning optimal nisbati 400 m to'siqlar bo'yicha yuguruvchilarni tayyorlashning yillik tsikli, o'tkaziladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, uch hafta davomida yuguruvchilar davom etganda 400 m to'siqlar anaerob glikolitik yo'nalish katta miqdorda bajarilgan yuklammalarni amalga oshirdi. Mikrotsiklning 1, 3 va 5-kunlarida 7 kun davom etgan, to'siqlar uzunligi bo'lgan segmentlarni yugurishdi 100–300 m, intensivligi 91–95%. Bundan tashqari, bundaylarning tuzilishi va mazmuni eksperimentning 1, 2 va 3 haftalaridagi mashg'ulotlar standart mashq uslubidan foydalandi.

Mikrotsiklning qolgan kunlarida kattalar bilan mashg'ulotlar o'tkaziladi va o'rtacha yuklamalar yuqori tezlik, quvvat, tezlik-quvvat va texnik orientatsiya. Ushbu tadqiqot musobaqa davrida o'tkazildi yillik mashg'ulot tsikli, shuning uchun yanada tekiz yugurish va to'siqlar anaerob-glikolitik energiya ta'minoti zonasida amalga oshirildi 400 m masofaga to'siqlar bilan yugurish bo'yicha ixtisoslashgan yuguruvchi-yoshlar va o'smirlar bilan ishlaydigan murabbiylar to'siqlardan o'tishning barcha sifatlari va usullarining uyg'un kombinatsiyasi tamoyiliga amal qilishlari kerak, shuning uchun sezgir ta'sir zonalarini tugaguncha kutish kerak (o'z ichiga oladi, yuguruvchilarning biologik yoshini hisobga olish) vosita mahoratining individual tomonlarini tashkil etuvchi barcha fazilatlarining rivojlanish darajasining tabiiy o'sishi va shuning uchun ixtisoslikni boshlash juda kech. Shu munosabat bilan mashg'ulot jarayonini boshidanoq uni individuallashtirish orqali olib borish samaraliroqdir.

Avvalo, yuguruvchilarni har bir etakchi ko'rsatkich bo'yicha va aniq yillik tsiklning butun davrida, joriy ish yo'naltirilgan yo'nalishning selektiv testlarini nazorat qilish bilan cheklanib qolmasdan, sinovdan o'tkazish kerak, chunki bu juda muhim. Kechiktirilgan ta'sirning xususiyatlari yoki turli ishlarning butun kompleks ko'rsatkichlarga bilvosita ta'siri haqida ma'lumot olish. Ushbu ma'lumotlar bilan tasodifiy emas, balki keyingi ishlarni qurish mumkin bo'ladi. Uni ritmik va texnik tarkibning testlari, shuningdek, kuchga chidamlilik testi bilan o'ldirish tavsiya etilishi mumkin. Sportchining "kuch-chidamlilik", "tezlik-tezlik chidamliligi", "tezlikka chidamlilik-to'siqlar texnikasi" va boshqalar kabi mashg'ulotlarning turli kombinatsiyalariga individual reaksiyalariga alohida e'tibor berish kerak. Har bir sportchi

uchun bu bog'lanishlar engil atletika metodologiyasida yoki sport mashg'ulotlari nazariyasida (B. Yushko, 1987 va boshqalar) qabul qilingan bunday juftliklarning mosligi yoki qarama-qarshiligi haqidagi umumlashtirilgan g'oyalarga qaraganda ancha noaniqdir, shuning uchun har bir yuguruvchi o'rganishi kerak turli tuzilmalar mashg'ulotlarga moslashish.

Musobaqa davrida shuni hisobga olish kerakki, agar kalendar rejada yugurish natijasida tayyorgarlikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan minimal startlarni o'z ichiga olmasa (hatto o'rganilgan mahorat darajasidagi to'siqlari bo'lgan 400 m to'siqlar uchun) kamida 10), keyin maxsus musobaqalarda to'liq masofani bosib o'tish kerak - hisob-kitoblar, lekin hatto bu startlar ketma-ket 4-5 haftadan ko'p bo'lmagan holda rejalashtirilgan bo'lishi kerak va keyin hamma uchun umumiy qoida bo'lishi kerak. tortib olishga qaratilgan mikro-tayyorgarlik tsikli bir yoki uchta (alohida ortda qoladigan) tayyorgarlik komponentlarini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Артюшенко А. Техническая подготовка барьеристов. // Легкая атлетика. - 1978.-№6. - С. 12-13.
2. Аракелян Е.Е., Разумовский Е.А., Черенева Л.А. Барьерный бег. //Легкая атлетика: Учебник для институтов физ.культ./ Под ред. Н.Г. Озолина, В.И. Воронкина, Ю.Н. Примакова.- Изд.4-е, доп., перераб.- М.:Физкультура и спорт, 1989. - С. 334-372.
3. Алабин В., Майшутович М., Масловский Е. 400 м с/б. //Легкая атлетика. - 1974. - N 9. - С. 26-27.
4. Степанова М.И. Подготовка спортсменов мирового класса в беге на 400м с барьерами; Автореф. дис.. канд. пед. наук. СПб, 1996, - 24 с.

Xudayberganov Otabek
Urganch davlat universiteti,
Davletov Jaxonali
UrDU Jismoniy madaniyat 1 kurs magistir
(Urganch, O'zbekiston)

8 – 9 YOSHLI GIMNASTIKACHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so'nggi yillarda gimnastik elementlarning murakkablashib borishi yosh gimnastikachilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Ammo ko'pincha shu sifatlarning rivojlanganlik darajasi gimnastik elementlarni samarali o'zlashtirish imkonini bermaydi.*

Kalit so'zlar: *jismoniy va funksional imkoniyatlar, yuklamalar, gimnastik mashqlar, kombinatsiyalar, sportchilar, tayyorgarlik, ilmiy-tadqiqot, malakali sportchilar, nazorat qilish, sport anjomlari, xalqaro musobaqalar, jismoniy sifatlar, rivojlantirish, gimnastik element texnikasi.*

Аннотация. *Данная статья посвящена развитию и совершенствованию физических качеств юных гимнасток по мере усложнения гимнастических элементов в последние годы. Но зачастую уровень развития этих качеств не позволяет эффективно осваивать элементы гимнастики.*

Ключевые слова: *физические и функциональные возможности, нагрузки, гимнастические упражнения, комбинации, спортсмены, тренировка, исследование, квалифицированные спортсмены, контроль, спортивный инвентарь, международные соревнования, физические качества, развитие, техника гимнастических элементов.*

Yosh sportchilarni tayyorlash, shu jumladan gimnastika bo'yicha iste'dodli sportchi bolalarni yetishtirish o'quv-trenirovka jarayoni yangicha ilmiy nazar bilan yondoshish hamda samarali pedagogik texnologiyalar yaratish darkorligini taqozo etadi. Sport amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, sportchilarni tayyorlashda qo'llaniladigan an'anaviy uslub va vositalar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining muayyan bosqichida o'z samaradorligini yo'qotishi yoki sustlashtirishi mumkin. Natijada, sport natijalari ham, jismoniy va funksional imkoniyatlar ham taraqqiyotdan to'xtashi ehtimoldan holi emas. Bunday vaziyatni kelib chiqishi tabiiy holatdir. Chunki organizmning yuklamalarga moslashish imkoniyati cheksiz bo'lmaydi, an'anaviy yuklamalarga ko'nikish hosil bo'ladi, ixtisoslashtirilgan maxsus mashqlar sport mahoratini o'sishiga qudrati etmay qoladi.

Ma'lumki, yildan yilga gimnastik mashqlar dasturi yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'lib, ijro etilayotgan harakat kombinatsiyalari borgan sari murakkablashib borayapti. Binobarin, ushbu vaziyat gimnastik ko'pkurash turlari istiqbolini oldindan belgilab berish imkonini yaratadi. Bularning barchasi olimpiada o'yinlarining ommalasha borishi, ularning dasturlari va medallar sohiblari geografiasining kengaya borishi hamda katta sportning professional va tijorat qiyofasiga kirib borayotganligi bilan bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida

mashg'ulot va musobaqalar yuklamasi hajmi hamda shiddatini ortishi, sportchilar mahoratining o'sishi, tayyorgarlikning yangi samarali uslub va vositalarini ishlab chiqish va amalga tadbir etish, katta sport yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining jaddallashishi va shu jarayonni ta'minlashda qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot asboblarning yangi avlodini yaratilishi, malakali sportchilarning tayyorgarlik jarayonini kompyuter tizimi asosida nazorat qilish, sport anjomlari, uskunlari va sport kiyimlarini takomillashib borishiga asoslanadi. Sport industriyasining keng quloqch yozishi, sport infrastrukturasi rivojlanib borishi, xalqaro musobaqalar taqvimining kengayishi, sportchi va murabbiylarning turli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatishi, sport va ilmiy axborot hajmining ortib borishi, ilmiy-sport markazlari va ko'pdan-ko'p tayyorgarlik bazalarining tashkil etilishi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda, ta'kidlash joizki, katta sportga olib chiquvchi ko'p yillik tayyorgarlik tizimidan joy olgan dastlabki tanlov va sportga yo'naltirish jarayoni zamonaviy sportning o'ta dolzarb va fundamental ahamiyatga ega masalalardan biridir.

Gimnastik mashqlarga dastlabki o'rgatish jarayonida bolalar trenerlari, aksariyat hollarda, ayrim muammolarga duch kelishi kuzatilib turadi. Jumladan, hatto eng oddiy gimnastik element texnikasiga o'rgatishda muayyan jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasiga tayaniladi. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayoni turli malakali sportchilarni tayyorlash tizimining ustivor va ajralmas qismiga mansubdir. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu sifatlarni rivojlantirish samaradorligi harakat malakalariga o'rgatish muddati va shu malakalarni o'zlashtirish sur'atini belgilaydi. So'nggi yillarda gimnastik elementlarning murakkablashib borishi yosh gimnastikachilar jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Ammo ko'pincha shu sifatlarning rivojlanganlik darajasi gimnastik elementlarni samarali o'zlashtirish imkonini bermaydi. Shunday vaziyatlarda odatda ikki yo'nalishda tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotdan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu turdagi mashg'ulotlarning yo'nalishlaridan biri - bu harakat qobiliyatini shakllantirish, ikkinchisi - harakat ko'nikmalarini tarbiyalash. Qayd etilgan vazifalarni alohida mustaqil va birgalikda hal etish mumkinligidan qat'iy nazar muvofiq jismoniy sifatlarni ham bir yo'la rivojlantirish zarur bo'ladi. Binobarin, zamonaviy gimnastik mashqlarni samarali o'zlashtirish ustivor jihatdan ixtisoslashtirilgan jismoniy tayyorgarlikka bog'liqdir. Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonini o'z ichiga oladi. Mutaxassis olimlarning fikriga ko'ra, dastlabki tayyorgarlik bosqichida shug'ullanayotgan yosh gimnastikachilarda shu yoshda qulay kechadigan jismoniy sifatlarni, jumladan, tezkorlik-kuch, egiluvchanlik, chaqqonlik va alohida koordinatsion sifatlarni rivojlantirish lozim. Ushbu jismoniy sifatlarni rivojlantirishda qaysi biriga ustunlik bilan yondoshish masalasida mutaxassislar fikri turlicha. Bir guruh mutaxassislar tezkorlik, kuch-tezkorlik sifatlari va koordinatsion qobiliyatga urg'u berish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular shu sifatlarga ustunlik berilishini bolalarning yosh xususiyatiga mutanosib ekanligi bilan izohlaydilar. Boshqa bir guruh olimlar jismoniy sifatlarni o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni e'tiborga olgan holda, mazkur yoshdagi bolalarda barcha sifatlarni barovar rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadilar. Shu bilan bir qatorda yosh gimnastikachilar jismoniy tayyorgarligining asosiy jismoniy sifatlarni turli yo'nalishda, jumladan gimnastik elementlarga mos yo'nalishda o'rganish bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar deyarli yo'q ekanligi kuzatildi.

Ko'p yillik musobaqa amaliyotida sport natijalarining o'sishini ta'minlash dastlabki tayyorgarlik bosqichida olib boriladigan o'quv-trenirovka mashg'ulotlari samaradorligini oshirish zarurligiga e'tibor qaratadi. Keyingi bosqichlarda yosh gimnastikachilar tayyorgarlik jarayonini boshqarish yuksak sport mahorati talablari doirasida amalga oshirilishi darkor. Buning uchun maksimal sport natijalarini ko'rsatish mumkin bo'lgan yosh davrigacha harakat qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan uslub va vositalardan unumli foydalanish lozim bo'ladi.

Zamonaviy gimnastikada o'rgatilishi zarur bo'lgan harakat malakalariga xos jismoniy sifatlarni qisqa muddat ichida rivojlantirish imkoniyatini yaratuvchi uslub va vositalar qo'llaniladi. Bu esa o'z navbatida gimnastik snaryadlarda ijro etiladigan mashqlarni tezroq o'zlashtirish va bu masalaga ko'proq vaqt ajratishni taqozo etadi. Gimnastikachilarning texnik tayyorgarligi ularning jismoniy sifatlari asoslanadi. Agar gimnastikachining jismoniy imkoniyati gimnastik element texnikasi talablariga javob bermasa, birorta mashqni maromida bajarish mumkin bo'lmaydi. Boz ustiga, texnik mahoratni takomillashtirish nuqtai nazaridan kuchga oid tayyorlov mashqlari tarbiyalanayotgan sifatni yuksak darajada shakllanishini ta'minlashi kerak. Bu borada gimnastikachilarga maxsus yo'naltirilgan mashg'ulotlar az qotadi. Ayniqsa, musobaqa davrida gimnastikachilar uchun o'rganilayotgan elementlarga xos sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, shunday ekan, har bir muayyan vaziyatda harakat malakasiga o'rgatish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, oldindan o'zlashtirilgan bir guruh mashqlar nafaqat boshqa turdosh mashqlar elementlariga o'rgatish masalasini engillashtirishi darkor, balki dastlabki o'zlashtirilgan mashqlar qayd etilgan turdosh mashqlarga o'rgatishda asosiy manba bo'lib xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir. Bunga etakchi texnik xususiyatlarga ega keng gimnastik mashqlar majmuasiga asosan ishlab chiqilgan muvofiq jismoniy va maxsus harakat tayyorgarligi hamohang bo'lishi mumkin. Tashkiliy va uslubiy jihatdan bunday ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik nafaqat tasnifiy asosda uyushtirilishi kerak, balki maxsus tanlangan o'quv-trenirovka mashqlari yordamida olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Umarov M.N., Eshtaev A.K. Planirovanie i raspredelenie sredstv trenirovki gimnastov na nachalnom etape podgotovki. Ucheb. posobie. – T.: UzGIFK, 2004. -154 s.
2. Eshtaev A.K. Gimnastika darsi: O'quv qo'llanma. - T.: 2004. – 120 b.
3. Umarov M.N. Gimnastika: O'quv qo'llanma. – T.: Vneshin vestrom, 2015. – 400 b.

Gulshoda Hakimboeva,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
2-bosqich talabasi
Gulshoda Hakimboeva,
Uzbek State Institute of Arts and Culture
2nd year student
Гульшода Хакимбаева,
Узбекский государственный институт искусств и культуры
студентка 2 курса

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK OILAVIY MAROSIMLARIGA BAG'ISHLANGAN TADQIQOTLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining oilaviy marosimlari xususida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarga qaratilgan e'tibori va ijtimoiy hayoti haqida tahliliy fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Annotation: This article provides detailed information on family ceremonies of the Uzbek people. It also analyzes the attention paid to the national values and social life of our people during the years of independence.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о семейных обрядах узбекского народа. Также анализируется то внимание, которое уделялось национальным ценностям и общественной жизни нашего народа в годы независимости.

Kalit so'zlar: oilaviy marosim, an'ana, udum, ijtimoiy hayot, urf-odat, islohot

Keywords: family ceremony, tradition, customs, social life, customs, reform

Ключевые слова: семейный обряд, традиция, обычаи, общественная жизнь, обычаи, реформа.

O'tgan XX asr so'nggi choragidan boshlab dunyo miqiyosida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganishga alohida e'tibor qaratildi va aynan mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar fandagi dolzarb mavzulardan biri tarzida e'tirof etila boshlandi. Ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda dunyo miqiyosida kechayotgan globalizatsion jarayonlar etnik xususiyatlarning saqlab qolish omillarini va milliy marosimlarni tadqiq etish muammosini dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbek xalqining qadimiy rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'yi jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri - nikoh to'yidir. Xalqimizning qadimiy e'tiqodlarini, madaniyat

tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o`rganishda nikoh to`yi bilan bog`liq marosimlar muhim ahamiyatga egadir.

Dunyodagi ko`plab boshqa xalqlar singari o`zbek to`y marosimlari sirasida nikoh to`ylari uzining turli xildagi marosimlarga, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarining rang-barangligi bilan alohida ajrab turadi.

O`zbek xalqi qadim o`tmishdan bugungi kungacha o`zining boy tarixi, ma`naviy qadriyatlari, milliy urf-odatlariga ega bo`lib, zamonlar osha uni o`z qalbi va ma`naviyatiga saqlab kelib, avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelmoqda. Tarix insoniyat hayotining shakllanishi, taraqqiy etib borishi va kelajak uchun zaruriy ehtiyojlarni yaratishga asos bo`lib xizmat qilishi bilan birgalikda, o`tmish ajdodlarimizning bosib o`tgan turmush tarzini halollik, haqqoniylik hamda tanqidiy ruhda tahlil qilishni ham o`z zimmasiga yuklaydi. Tarixni o`rganish, tarixiy voqealarni kelajak avlodga haqqoniy ochib berish haqida O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch" asarida quyidagi fikrlarni bildirgan: "El yurtimiz o`zining ko`p asrluk tarixi davomida mash`um xatarlarni necha bor ko`rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma`naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o`tmish, bosib o`tgan mashaqqatli yo`limiz barchamizga saboq bo`lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo`lib yashashga da`vat etishi lozim. O`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko`p bora o`z isbotini topgan". Vatanimiz milliy mustaqillikni qo`lga kiritganidan keyin tarixiy haqiqatni mafkuraviy tazyiq va ta`sirlardan xoli tarzda, xolisona va haqqoniy, adolat va tarixiylik nuqtai nazaridan xalqimizga yetkazish imkoniyati yuzaga keldi.

O`zbekiston tarixan olib qaraganda juda ham qadimiy davlatlar qatoridan joy oladi. Uning bu ko`hnaligi nafaqat moddiy balki, madaniy qadriyatlarda ham o`z ifodasini topgan. Bu an`ana hamda udumlarimiz etnograf olimlar, tarixchilar va sayohatchilar o`z asar va kundaliklarida ko`plab ma`lumotlar keltirib o`tganlar. Bunga misol qilib Rui Gonsales de Klavixonning "Kundalik" hamda Xerman Vamberining "Sayohatnoma" asarlarini keltirib o`tishimiz mumkin.

Shuningdek, K.Shoniyozov ilmiy nazariy asarlarida o`zbek xalqining etnik tarixi, moddiy va ma`naviy hayoti xususan, to`y marosimlari to`g`risida qimmatli ma`lumotlar keltirilgan, Muallif o`zbek nikoh to`yining barcha jarayonlariga: sovchilik, fотиha, bevosita nikoh to`yi urf-odatlariga va to`ydan keyin o`tkaziladigan udumlarga alohida e`tibor qaratadi.

Etnografiyaning nazariy muammolari sirasiga kiruvchi ma`naviy madaniyatning muhim qismi bo`lgan oila-nikoh masalalariga bag`ishlangan mutaxassislarining ilmiy ishlariga. A.Doniyorov, G.Zununova, K. Kubakov, M. Kosven, Hoji Muin, N.Azimova, S.Davletova, M.Ibragimova, X.Ismoilov, I.Jabborov, K.Shoniyozov, O.Bo`riyev, A.Ashirov ilmiy ishlari maqolaning uslubiy asoslarini belgilab olishga yordam berdi. Dala etnografik materiallari suhbat va shaxsiy kuzatish asosida to`plandi. Maqolada tavsifiy va qiyosiy

tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, sematik- semiotik nazariya usullaridan foydalanildi.

Mustaqillik bizga qadim qadimdan ota bobolarimizdan meros urf odatlarimizga erkin amal qilish imkonini berdi. Shu o'ringda azaldan to'y-tomosha oshuftasi o'zbek xalqining to'y marosimlari bilan bog'liq an-analari hamda rasm-rusmlari faqatgina xursandchilik va shodiyonalik bo'libgina qolmasdan, balki, muayyan maqsadga qaratilgan, asrlar davomida rioya qilinib kelinayotgan diniy udumlar majmui hamdir. To'y-bashariyat aql zakovati, tabiiy, ma'naviy-axloqiy va huquqiy ehtiyojlari, talablari asosida vujudga kelib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, hozirgi kunimizgacha yetib kelgan va istiqbolda ham ma'naviy qadriyatlarimiz tarkibida mustahkam saqlanib keladigan noyob hayotiy marosimlar majmuidir. Darhaqiqat, to'y deb ataluvchi so'z anglatgan marosimlar hamma vaqt hamma joyda kishilarning talabi, ehtiyoji bilan o'tkazilar ekan, ushbu hayotiy hodisaning turli elatlar va xalqlar va millatlardagi vujudga kelish tarixi, shakllari, tarixiy jihatdan kasb etgan xususiyatlarini o'rganish, uning tarkibida saqlanib qolgan umuminsoniy, milliy va mahalliy ijobiy an-analarni saqlab qolish: qoloq, davr talablariga mos kelmaydigan jihatlarni isloh etish, kamxarajatli, ixcham to'ylar qilishga xalqimizni odatlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.[2-65]

Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan ma'lumotlarga qaraganda "to'y"-atamasi turkiy so'z bo'lib, "toy" yoki "qurultoy" shaklida mo'g'ullar va chig'atoy xonlari davrida ham keng qo'llanilgan. XIV asrda Movarounnahr hududiga sayohat qilgan arab sayyohi Ibn Batuta esdaliklariga asosan "toy"-bu har yili o'tkaziladigan yig'in (qurultoy) bo'lib, unda Chingizxon avlodlari, amirlar va turkey beklar, obro'li ayollar va lashkarboshi ishtirok etgan. Yakunlangan muddati 1864 yil 5 may bo'lgan "Tavorixi xorazmshohiya" tarixiy asarida uchraydigan ma'lumotga ko'ra, vazir Xasan-Murod qushbeginig o'g'li Muhammad Yusufbek xonning qiziga uylangan bo'lib, ziyofat-toy (to'y) bir necha kun davom etgan. Tadqiq etilgan aksariyat ma'lumotlar asosida, "to'y" –qadim zamonlardan beri doimo katta jamoa, yuqori martabali zadogonlar, katta hajmdagi yig'in, cheklanmagan miqdordagi ziyofat va dabdaba bilan uzviy bog'liq bo'lgan odatligi aniqlandi.

O'zbek to'y marosimlari davrlar o'tishi bilan qisman o'zgarib borgan va har bir etnik guruhda o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro farq qiladi. Qadimdan meros bo'lib kelayotgan to'y marosimlari islomgacha va islomdan keying ayrim magik xarakterga ega bo'lgan udumlarning hozirgi zamonaviy odatlar bilan qorishib ketganligini millatlar o'rtasidagi aloqalarning globallashuvi natijasidir. Jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanmish oila munosabatlari nikohdan boshlanadi. Bunda ikki yoshning yangi hayotga qadam qo'yayotganligi el-ulus, qo'ni-qo'shnilarga ma'lum qilinib, ularning turmush qurishga kirishayotganligi e'tirof etiladi. Ana shu nikoh to'yi o'zbek xalqida boshqa to'ylardan to'y ishtirokchilari tomonidan murakkab urf-odatlar va irim-sirimlarning bajarilishi, ko'plab qadimiy e'tiqod va topinishlarning masalan, fetishizm, totemizm, ajdodlar ruhiga sig'inish, olov va boshqa bir qator demonologik ko'rinishlar izlarining mavjudligi bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqining uzoq tarixga ega yana bir to'y marosimi beshik to'yidir. Ushbu to'y nikoh to'yining mahsuli bo'lib, oilada tug'ilgan ilk farzand sharafiga beriladi. Bunda chaqaloqning ona tomondan qarindoshlari chaqaloqqa beshik va zarur bo'lgan barcha buyumlarni karnay-surnay sadolari ostida olib borishadi.

Millatimizning qadimgi to'ylaridan yana biri sunnat(xatna) to'yidir, undan maqsad islomning sunnatini bajarishdir. To'y o'g'il bolalarning tog' yoshlarida, ya'ni 1-3-5 yoshlarida o'kaziladi. To'y oldidan xatmu qur'on marosimi o'tkazilib, elga osh tortish va to'y bolaga ezgu tilaklar tilash bilan yakunlanadi.

Umuman olganda, xalqimizning tarix sinovlaridan o'tgan bayramlari marosimlari, urf-odatlari xalqimizning milliy xususiyatlari, qadriyatga aylangan xalqchilik ruhi bilan sug'orilgan jihatlari, halollik, poklik, mehnatsevarlik xislatlarini namoyon etadi. Xalqning o'ziga xos milliy, ruhiy ko'rinishlarining barchasi xalq to'ylarida o'z ifodasini topadi. Aynan mazkur marosimlar va odatlar yashovchanligining asosiy sababi ularning asosiy mazmun mohiyati hamda maqsadi kelajak avlod davomiyligini ta'minlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Ammo so'ngi kunlarda xalqimiz orasida to'y marosimlaridagi asosiy e'tibor yoshlarning baxtli bo'lishiga emas, quda tomonning to'y uchun qilgan xarajati miqdoriga qaratilmoqdagiki, bu jamiyatning ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aholining aksariyat qismi orasida to'y marosimlari uchun sarf-xarajatlarning oshib borayotganligi, isrofgarchilik, ko'p sonli mehmonlarning taklif etilishi-bu yillar davomida kutilgan orzu-havasning yaxshi niyatda amalga oshirilayotganidan ko'ra, xalq orasida "kim o'zarga" obro' talashishga aylanib qolgan. Natijada so'ngi kunlarda milliy to'y an'analarimizga aloqasi bo'lmagan, ayrim qo'shtirnoq ichidagi urf-odatlarga mos bo'lish uchun daromadlariga yarasha emas, balki qarz olib bo'lsada, katta sarf-xarajat qilishmoqda. Buning oqibatida to'ydan keyin kelib chiqadigan kelishmovchiliklar yoshlarimizni ajrashib ketishlariga ham sabab bo'lmoqda, yoki oilani bir necha yillar davomida qiynalib yashashga majbur qilmoqda. Yuzaga kelgan vaziyatni e'tiborga olib diniy ulamolar, imom-xatiblar aholi orasida marosimlarda isrofgarchilikka yo'l qo'yib bo'lmasligi, islom dinida to'ylar va ma'rakalarda katta sarf-xarajatlardan oqlanmasligi haqida tushuntirish ishlarini olib bormoqda. Yuqoridagi mavjud vaziyatni inobatga olib O'zbekiston Respublikasining parlamenti 2019 yil 14 sentabr kuni "To'y hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini takomillashtirish" to'g'risidagi qarorni qabul qildi. Qarorda har xil ko'ngilsizliklarning oldini olish maqsadida to'y hashamlar va boshqa oilaviy tadbirlarning davomiylik vaqti hamda chaqiriladigan mehmonlar soni aniq belgilandi. Shuningdek qarorda to'y marosimlarining katta xarajat talab etadigan har bir qismiga to'xtalib, asosiy e'tibor to'ylarning ixchamligi va kamxarajatli qilib o'tkazilishiga qaratilgan.[5-Oliy Majlis qarori]

Xalqimiz azaldan saxiy, mehmondo'st xalq. Ammo me'yordan oshgan har qanday holat, zararga yo'liqtirishi mumkinligini hisobga olib, to'ylarning ortiqcha dabdabali bo'layotganligi va buning oqibatida yuzaga kelayotgan moddiy qiyinchiliklar

hamda isrofgarchiliklarning oldini olsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashirov A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. –T., 2019.
2. Klyashtorniy S.G. Qadimgi turkey runic yodgorliklari O'rta Osiyo tarixi uchun manba sifatida.-M., 2017
3. Mahmud Qoshg'ariy Devonu lug'atut turk.-T., 2014
4. O'zbekiston Respublikasining parlamenti 2019 yil 14 sentabr kuni "To'y hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini takomillashtirish" to'g'risidagi qarori.
5. Шаниязов К. Узбеки-карлуки.
6. Дониёров А.Х. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи фани бўйича ўқув-услубий қўлланма.
7. Зунунова Г.Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций. – Ташкент,
8. Кубаков К. Тўй ва тўй маросимлари ўтмишда ва hozir. авлоди, 2012.
9. Hoji Muin. To'y va aza marosimi haqinda // Mehnatkash tovushi, 2019. 22 – mart.
10. Азимова Н.Х. Система традиционного воспитания детей в узбекских сельских семьях (на примере Андижанской области). Автореф. канд. дисс.-ист. наук. 2007.

SECTION: PHYSICS AND MATHEMATICS

Guleva Dilrabo Shamsiyevna
Buxoro tumani 12-maktab matematika fani o'qituvchisi,
Jumayeva Farida Mizrobovna
Buxoro tumani 12-maktab matematika fani o'qituvchisi
(Buxoro, O'zbekiston)

MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MASALA YECHISHGA O'RGATISH

Rezyume. Maqolada matematika darslarida o'quvchilarni masala yechishga o'rgatish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, o'quvchi, matematika, masala, son, arifmetik amal, yechim, arifmetik usul.

Mashqlardan foydalanish o'quvchilarda dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilib, ularga "son", "arifmetik amal", kabi abstrakt tushunchalar real hayotdan, amaliy faoliyatdan olinganligiga ishonchni mustahkamlaydi. Mashqlarni yechish jarayonida o'quvchilar tasavvurini kengaytiruvchi faktlar bilan tanishadilar. Bu bilan ularning farqlash doirasi kengayadi, hamda mashg'ulot bilan hayot, (amaliyot) o'rtasida uzviy aloqa o'rnatiladi. Mashqlarni yechish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, ularda tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish va abstrakt farqlashga ko'nikmalarni shakllantiradi. Mashqlarning tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir.

Tayyorgarlik davridagi ishdan maqsad – bolalarga real hayotda yuz beradigan holatlarni matematik simvollar tiliga o'tkazish imkoniyatini anglatishdan iboratdir. Bu holatda rasmlar yordamida masalalar tuzilishining zarurati yo'q. Yaxshisi kichik hikoya shaklida bayon etilgan holatni bolalar matematik belgilar bilan daftarga yozib olish imkoniyati bo'lsin. Hikoya uchun + = yoki – =. Sxematik shakldagi yozuvlar ko'rsatkich (yo'llanma) bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rejalashtirishning foydali vositasi bo'lib, odatda, o'z ichiga "yashirin informatsiyani" oladi. Bu informatsiyani qidirish, masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Masalalar yechish orqali o'quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog'i lozim. 1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar hali o'qish malakasiga ega bo'lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o'qituvchi o'qib beradigan masala matnini tinglashga, shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o'rgatish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o'zlashtirish maqsadida, har bir o'quvchi masala matnini tinglabgina qolmay, balki masalani mustaqil o'qib chiqishi zarur; Masala matni o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan bir-ikki marta o'qiladi, ammo bunda bolalarni masala matnini bir marta o'qishdayoq uning mazmunini tushunib olishga asta-sekin o'rgata borish

